




## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2023 yil yanvar-may oylari holatiga




■	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
■	Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali kelib tushgan murojaatlar
■	Ishonch telefoni orqali og'zaki murojaatlar
■	Statistika agentligining elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
■	To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
■	Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga 2023-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 460 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 70 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 3 ta Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali, 214 ta Agentlikning elektron pochta orqali, 74 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 7 nafar ishonch telefoni orqali, 92 ta Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Statistika agentligiga asosiy qismi Toshkent shahridan 242 ta (o'tgan yilning shu davrida 192 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 44 ta, Samarqand viloyatidan 27 ta, Sirdaryo viloyatidan 21 ta, Andijon viloyatidan 18 ta, Qashqadaryo viloyatidan 15 ta, Buxoro viloyatidan 20 ta, Namangan viloyatidan 12 ta, Jizzax viloyatidan 11 ta, Farg'ona viloyatidan 15 ta, Navoiy viloyatidan 16 ta, Surxondaryo viloyatidan 6 ta, Xorazm viloyatidan 8 ta Qoraqalpog'iston Respublikasidan 3 ta hamda 2 ta murojaat boshqa hududdan kelib tushgan.

## Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Statistika agentligiga kelib tushgan jami **460** ta murojaatlarning tasiga chora ko'rildi, **367** ta murojaatlar ijobiy hal etildi, **88** ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, **5** ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

## Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **40,0** foizi (**184 ta**) jismoniy shaxslar va **60,0** foizi (**276 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



Og`zaki

- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 202-81-80



Og`zaki

- Statistika agentligi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 202-81-81



Elektron

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul: **F.Berdibayev**

(71) 202-81-77